

RAHMATULLA BARAKAYEV HAQIDA

SUVON MELI

Bolalar adabiyoti, aslida katta adabiyot, uncha-muncha qoliplarga sig‘maydigan, mutlaqo o‘ziga xos adabiyot. Bolalar bejiz kichik donishmandlar deyilmaydi. Ular qalb tuzilishi, ruhoniyligi bilan g‘ayb olamiga yaqinroq turadilarki, bu hol ularning butkul o‘zgacha dunyoqarashini belgilaydi.

Bu gaplarni aytishdan maqsad XX asrda yaratilgan o‘zbek bolalar adabiyoti va uni har taraflama tahlil va tadqiq etgan taniqli adabiyotshunos olim Rahmatulla Barakayevni O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘ziligiga tavsiya qilish va shu bahonada bu kishi haqida bir-ikki og‘iz fikr bildirishdir.

Hech mubolag‘asiz aytish mumkinki, R.Barakayev butun umrini bolalar adabiyotini o‘rganishga bag‘ishladi va bag‘ishlab kelmoqda. Uning yozgan maqolalari, nashr etgan kitoblari bolalar adiblari tomonidan yaxshi kutib olinganiga guvohman. X.To‘xtaboyev, Anvar Obidjon, Dilshod Rajab va boshqa ijodkorlar Rahmatullani o‘z sohasining bilimdoni sifatida qadrlab kelishgan. Marhum bolalar shoiri T.Adashboyev-ku, Rahmatulla haqida og‘zidan bol tomib gapirardi.

Bunday bahoga har qanday olim ham muyassar bo‘lavermaydi.

R.Barakayev tarjimashunoslik, xususan, bolalar adabiyoti tarjimashunosligi bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. 1999-yilda A.S.Pushkin tavalludining 200-yilligiga bag‘ishlab chop etilgan “Pushkin v Uzbekistane” (T., 2000) kitobida uning Pushkin ertaklarining Oktyabr to‘ntarishigacha bo‘lgan davrda qilingan tarjimalari haqida rus tilidagi maqolasi chop etilgan edi. Ayni shu maqola Moskvada nashr etiladigan “Russkiy arxiv” jurnalida ham bosilganidan xabarim bor. Buni aytishimdan maqsad R.Barakayev rus tilida ham yozadiki, bu ham quvonarli holdir.

Ma‘lumki, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi qoshida “Bolalar adabiyoti” kengashi samarali ish olib bormoqda. Mazkur kengash yanada samaraliroq ishlashi uchun R.Barakayevday jonkuyar olimlar uyushmamizning a‘zosi bo‘lishi zarur.

Shu bois, men kechikib bo‘lsa-da, R.Barakayevga uyushmamiz a‘zosi bo‘lishi uchun tavsiyanoma berayotganimdan xursandman.

Men kitobga ushbu tavsiyanomani hech bir o‘zgarishsiz kiritmoqdaman hamda yubilyarimiz bolalar adabiyoti bo‘yicha mutaxassis bo‘lganligi bois shu adabiyotga mansub bir she‘r tahlilini havola qilmoqdaman.

SUVDAY SUCHUK SHE‘R

Subhidamdek totadi jonimga suchuk bu she‘r

(G‘afur G‘ulom, “Toshkent”)

(Zafar Diyor, “Suv bilan suhbat”)

Bu ko‘hna olamda suvdan sirliroq narsa yo‘q, hoynahoy. Aslida-ku, diqqat solib boqsangiz, chor-atrof sirdan iborat. Biz suvni o‘zimizning kimyoviy tafakkurimizda N_2O deb belgilab olib, uni tarkibini bilamiz, deb o‘ylaymiz. Vaholanki, bu shartli belgi suvning asliyatini anglatmaydi, u suvning namoyon bo‘lishi, tajalliysi, orazini bildiradi, xolos. Suvning mohiyati, asliyati, zoti haqida nima bilamiz? Hech narsa. Yaratganning zotini hech qachon bilmaganimizdek, suvning zotini ham bilmaymiz. Bu bilmaslik – insonning bandaligi, yaratiq ekanligidan, o‘zida yashirin bo‘lgan bilimdan o‘zi ham voqif emasligidan. Inson qalbiyu vujudida mavjud, lekin buni o‘zi ham bilmaydigan bilim, axborot ortiq darajada suvda mujassam. Zero, odam vujudi salkam sakson foiz suvdan iborat.

Shuning uchun ham suv haqida maxsus tadqiqot olib borgan yapon shifokori va olimi Masaro Emato “Har bir odamda, hatto uning har bir hujayrasida koinot haqidagi axborot saqlanadi”¹ deb yozar ekan, bunda u inson organizmi tarkibidagi suvni nazarda tutadi. Olam tarkibidagi chor unsur – suv, olov, shamol, tuproq birikib, (buni Hazrat Navoiy “Bo‘lib inson xilqatida muttahid” deydi), inson vujudini paydo qiladiki, suvdagi va qolgan uch unsurdagi ilohiy axborot insonni sarvari koinot rutbasiga ko‘taradi.

Haqida gapirmoqchi bo‘lganimiz she‘r bola tilidan bayon etilgan, uning murg‘ak ongi bilan yo‘g‘rilgan bo‘lsa, buncha olimona so‘zlar joizmikan, degan e‘tiroz tug‘ilishi tabiiy. Gap bu yorug‘ olamni navqiron 34 yoshida tark etgan, shunday bo‘lsa-da, o‘zbek bolalar adabiyotida nomi muqim qolgan Zafar Diyor va uning darsliklarga kirgan mashhur “Suv bilan suhbat” she‘ri haqida bormoqdaki, e‘tiroz savolga tahlil davomida javob topilar, deb umid qilamiz.

Nomidan ko‘ringanidek, she‘r bolaning suvga murojaat-savoli, suvning unga javobidan iborat, ya‘ni dialog-she‘r. U yetti xijoli o‘ynoqi misralar (xuddi suv kabi), beshta sakkizlik banddan tashkil topgan. Bola so‘raydi, suv javob beradi.

She‘r sal, jichcha qo‘polroq “Hoy, sen...” undalmasi bilan boshlanadi:

– Hoy, sen, jiyron toychamdek
O‘ynab-o‘ynab oqqan suv,
Dalalarga bayramdek
Guldan bezak taqqan suv,
Quloq solgin so‘zimga,
Nega buncha shoshasan?
Qayerdan bu kelishing
Qirg‘oqlardan toshasan?²

¹ Emato M. Skrytye poslaniya vody. Taunye kody krisstalov lda. - M.: Sofiya, 2008. - S. 75.

² O‘zbek she‘riyati antologiyasi. Besh tomlik. 5-tom. – Toshkent: O‘zdamnashr, 1962. 83-bet.

Ilk misradagi o‘xshatish – “jiyron toychamdek...” she’ning mazmun va ohangini belgilayotgandik: bola o‘zi ko‘rib-bilib yurgan toychog‘ining xatti-harakatini suvga ko‘chirmoqda. Yana. Bola nazarida jiyron toychasiga o‘xshatilayotgan suv toycha kabi tirik (suv aslida ham tirik) mavjudot sifatida ko‘z oldimizda gavdalanib, bizni suvning oqishi kabi oldinga boshlaydi. Toychaga o‘xshatish suvga ham yoqadi, shekilli, u bolaning alqovini shodon qabul qilib, bolaning “o‘ynab-o‘ynab”iga javoban o‘zining “o‘ynab-kishnab”ini qo‘shadi:

– Yaxshi bola, toychangdek
O‘ynab-kishnab kelishim,
Qir, adirlar oralab
Shamol kabi yelishim, –
Ko‘rasanmi, hu, o‘sha,
Oppoq qorli tog‘lardan,
Shoshib oqib kelaman.
Dalalardan, bog‘lardan.

Aytilganidek, suv – toycha muqoyasasi davom etib, suv timsolida jiyron toychani ko‘rgandek bo‘lamiz hamda banddagi detal poetik tasvirning mumtoz sig‘imdorligini ta‘min etib, “Ko‘rasanmi, hu, o‘sha...” ko‘z oldimizga ulkan, purviqor manzarani keltirib qo‘yadi. Oppoq qorli tog‘lar yonimizga kelib qolgandek bo‘ladi, go‘yo.

Bola endi savolni jadallashtiradi. Birinchi savol va javob 8 misradan bo‘lsa, endi ular 4 misradan:

– Yo‘l-yo‘lakay shildirab
Sen yoqimli kuylaysan,
Jilolanib, jildirab
Ne xususda so‘ylaysan?

Bundagi uchinchi misraga e’tibor qarataylik. – “Jilolanib, jildirab...” Sirtidan qaraganda oddiy gap. Lekin diqqat qiling, ko‘rasizki, biri suvning shakliga, ikkinchisi ovoziga ko‘rimli va eshitimli aniq qiyofa kashf etmoqda. Savol ham ancha jiddiy, falsafiy – “Ne xususda so‘ylaysan?..” Javob ham shunga munosib:

– Zarrin quyosh nuridan
Quvvat olib o‘ynayman,
U mehribon onaning
Maqtovini so‘zlayman.

Suv javobida o‘zining manbai, onasi Quyoshni madh etadi. “Quyosh-ku falakda kezib yuribdi, Umrimiz boqiydir, umrimiz boqiy” (G‘afur G‘ulom) – bu jiddiy falsafa, lekin “U mehribon onaning Maqtovini so‘zlayman” ham suv tilidan aytilgan chakana falsafa emas. Mumtoz adabiyotimizda “maqtov” “hamd” deyilib, u

Yaratganga nisbatan qo‘llanadi. Suv ham “Mehribon ona” Quyosh timsolida Yaratganga hamd aytsa, ne ajab.

She‘r adog‘iga yaqinlashmoqda, endi suvning borar manzili bolani qiziqtirmoqda:

– Endi menga, toshqin suv,
Aytgin borar yeringni,
Yomon bo‘lmas, shoshqin suv,
Gar bilsam manzilingni.

Bunda poetik axborot tashuvchi so‘zlardan boshqacharoq, bola tilidan g‘alatiroq bir jumla – “yomon bo‘lmas...” e‘tiborni tortadi. U shu g‘alatiligi bilan bola tiynatidagi sinchkovlik, aniqlikka ishora qiladiki, - u suvning borar manzilini aniq bilishi shart. Lekin bola bu so‘rovni kattalarga xos viqor va nazokat bilan aytmoqda – “Yomon bo‘lmas...”

Shunga yarasha, suvning javobi ham aniq va jo‘yali:

– Borar yerim – manzilim
Cheksiz paxta konidir;
Unutdingmi, azizim,
Suv ekinning jonidir.

Shu yerdagi “paxta” yaqindagina yakkahokimligidan, bolalarimizga azob bergan og‘ir mehnatidan qutulganimiz, o‘zi oq, qilmishi qora paxta emas. Paxta – ekin, unda ayb yo‘q. Ayb, uni qurol qilib, xalqimiz toleini qora qilgan milliy qaramlikda, mustabid siyosatda. She‘rning ruhi va ohangi shu qadar yorug‘ va nurliki, yuqoridagi paxta haqidagi gaplar xayolga ham kelmaydi. Natijada “Unutdingmi, azizim, Suv ekinning jonidir” ham yoqimli (suv bolani “azizim” deb suymoqda), ham falsafiy jaranglaydi. Zero, suv faqat ekinning emas, borliqning ham jonidir.

So‘nggi banddagi ilk to‘rtlik boshlang‘ich bandning deyarli takrori. Faqat avvalgi “Hoy, sen...” o‘rnini “yaxshi” so‘zi egallaydi. Bola va suv to‘liq kelishuv, o‘zaro muhabbatga erishadi:

– Yaxshi, jiyron toychamdek,
O‘ynab-o‘ynab oqqan suv,
Dalalarga, bayramdek
Guldan bezak taqqan suv.

Bu misralarda aql va mantiq bilan ilg‘ab bo‘lmas bir lazzat, nafosat bor – “Dalalarga bayramdek Guldan bezak taqqan suv”. Chanqoqdan keyin suv ichilgandagi lazzat.

Oxirgi to‘rtlik asarning apofeozi, tantanali yakunidir:

Unday bo‘lsa, to‘xtama,

O‘ynab-kulib oqaber,
G‘o‘zalarning ko‘ksiga
Guldan bezak taqaber!

Bola suvning o‘ynab-kulib oqishiga ruxsat beradi, go‘yo. Bu – go‘zal ruxsat, g‘o‘zalarning guldan bezak taqishiga ruxsat.

Ma’lumki, Zafar Diyor 1936-1941-yillar mobaynida bolalarning “Lenin uchquni” (hozirgi “Tong yulduzi”) gazetasida mas’ul kotib bo‘lib ishlagan. Shu davr haqida keyinchalik katta adib bo‘lib yetishgan Asqad Muxtor o‘z tarjimai holida Zafar Diyor haqida mehr bilan eslaydi.

“Asqad Muxtor, qaydasan?
Hamma yerni axtardik.
Aktiv muxbirchamiz, deb
Duch kelganga maqtardik...

Rahmatlik Zafar Diyor “Lenin uchquni”da shunday deb yozgandi o‘sha yillari... “Muxbircha”, bu nom bilan hali ham faxrlanaman”³.

Shu to‘rtlikning o‘ziyiq Zafar Diyorning sho‘x va mehribon ko‘nglidan, yosh ijodkorlarga bo‘lgan mehridan darak beradi. Shunday mehr sohibigina o‘zbek bolalar she’riyatining shedevarlaridan birini yarata oladi, albatta.

“Suv bilan suhbat” 1944-yilda yozilgan bo‘lib, ulug‘vor she’r bu yil 80 yoshga kiradi. Lekin u hamon yosh va suyuqli. Suv kabi suyuqli. Bolalarcha ulug‘vor, kattalarcha purviqor she’r. Maqola avvalida qo‘yilgan savolga qaytsak, she’rda yosh kitobxon hazm qiladigan darajada, bolalar she’riyati tabatiga mos falsafa mavjud. Buni falsafa deyish noo‘rindir, balki. Lekin xushyor boqilsa, “Xushyor boq, to foniy umr kechadi...” degani kabi bir paytlar ulug‘ shoirimiz Abdulla Oripov, chor-atrofimiz, butun borliq falsafa. Suv esa turish-turmushi bilan sir. Sir, suvning siri falsafadan-da yuksakroq falsafa. Suv bilan dildan suhbatlashayotgan, suv unga “Azizim” deb murojaat qilayotgan “yaxshi bola” esa shubhasiz, kichkina faylasufdir.

³ Adabiyotimiz biografiyasi. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1979. 294-295-betlar.